



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	

MILLIY XARAKTER TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK VA AKSIOLOGIK TALQINI

Usmonova Muattar Bahadirjonovna

Namangan davlat pedagogika instituti

Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik mazmuni yoritiladi. Milliy xarakter shaxsning milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy tajriba asosida shakllanadigan barqaror ma'naviy-ruhiy sifatleri majmui sifatida talqin qilinadi. Maqolada milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayoni, xalq pedagogikasi, oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit va qadriyatlar tizimining o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, milliy xarakter tushunchasining vatanparvarlik, mas'uliyat, halollik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik va milliy o'zlikni anglash kabi fazilatlar bilan bog'liqligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: milliy xarakter, pedagogik talqin, aksiologik yondashuv, xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlar, tarbiya, ma'naviyat, vatanparvarlik, shaxs kamoloti.

Abstract: This article explores the pedagogical and axiological meaning of the concept of national character. National character is interpreted as a set of stable spiritual, moral and psychological qualities of an individual formed on the basis of national values, traditions, customs, ethical norms and social experience. The article analyzes the role of the educational process, folk pedagogy, family upbringing, social environment and value system in developing the qualities of national character. Special attention is paid to the relationship between national character and such qualities as patriotism, responsibility, honesty, humanism, diligence, tolerance and awareness of national identity.

Key words: national character, pedagogical interpretation, axiological approach, folk pedagogy, national values, upbringing, spirituality, patriotism, personality development.

Аннотация: В данной статье раскрывается педагогическое и аксиологическое содержание понятия национального характера. Национальный характер рассматривается как совокупность устойчивых духовно-нравственных и психологических качеств личности, формирующихся на основе национальных ценностей, традиций, обычаев, нравственных норм и социального опыта. В статье анализируется роль образовательного процесса, народной педагогики, семейного воспитания, социальной среды и системы ценностей в развитии качеств национального характера. Особое внимание уделяется взаимосвязи национального характера с такими качествами, как патриотизм, ответственность, честность, гуманность, трудолюбие, толерантность и осознание национальной идентичности.

Ключевые слова: национальный характер, педагогическая интерпретация, аксиологический подход, народная педагогика, национальные ценности, воспитание, духовность, патриотизм, развитие личности.

KIRISH

Bugungi globallashuv va madaniyatlararo integratsiya jarayonlari shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, xalq pedagogikasi hamda ma'naviy merosga tayanish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish ularning nafaqat kasbiy kompetentligini, balki tarbiyaviy ta'sir kuchini ham belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki o'qituvchi o'quvchilarga bilim berish bilan birga, ularda vatanparvarlik, halollik, mas'uliyat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi milliy-axloqiy fazilatlarni shakllantiruvchi asosiy shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy xarakter tushunchasi pedagogik nuqtayi nazardan shaxsning ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadigan ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy va ruhiy sifatleri majmui sifatida talqin etiladi. Ushbu tushuncha xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, urf-odatlar, an'analar, axloqiy me'yorlari va tarbiyaviy qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois milliy xarakter faqat etnik yoki psixologik hodisa emas, balki pedagogik jihatdan shakllantiriladigan, rivojlantiriladigan va avloddan-avlodga uzatiladigan tarbiyaviy qadriyatlar tizimi sifatida qaraladi.



Aksiologik yondashuv esa milliy xarakter mazmunini qadriyatlar tizimi orqali anglash imkonini beradi. Bu yondashuvga ko'ra, milliy xarakter insonning o'z xalqiga, Vataniga, oilasiga, kasbiga, jamiyatga va ma'naviy merosga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, xalq pedagogikasida mujassam bo'lgan maqol va matallar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlar, urf-odatlar hamda marosimlar shaxsda milliy o'zlikni anglash, axloqiy mas'uliyat, ijtimoiy faollik va ma'naviy barqarorlikni shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu jihatdan, milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqinini ilmiy asosda o'rganish bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada milliy xarakter tushunchasining mazmun-mohiyati, uning pedagogik talqini, aksiologik asoslari hamda bo'lajak o'qituvchilar shaxsini tarbiyalashdagi o'rni tahlil qilinadi.

Milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish murakkab, uzluksiz va ko'p omilli pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda ta'lim-tarbiya tizimi, xalq pedagogikasi, oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit hamda milliy qadriyatlar o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi. Chunki shaxs xakteri faqat individual ruhiy sifatlar yig'indisi emas, balki jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy me'yorlari, axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlari asosida shakllanadigan barqaror fazilatlar tizimidir.

Ta'lim-tarbiya jarayoni milliy xarakter xususiyatlarini ongli va maqsadli shakllantirishning asosiy pedagogik maydoni hisoblanadi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv fanlari mazmuni, tarbiyaviy mashg'ulotlar, amaliy topshiriqlar, pedagogik amaliyot va murabbiylik faoliyati orqali talabalarda vatanparvarlik, mas'uliyat, halollik, intizom, bag'rikenglik va ijtimoiy faollik kabi sifatlar rivojlantiriladi. Ta'lim jarayonida milliy xarakter faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki amaliy xatti-harakat, kasbiy pozitsiya va pedagogik madaniyat shaklida namoyon bo'lishi lozim.

Xalq pedagogikasi milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishda boy tarbiyaviy manba vazifasini bajaradi. Maqol va matallar, ertaklar, rivoyatlar, dostonlar, urf-odatlar, marosimlar, xalq o'yinlari va pand-nasihatlar orqali avlodan-avlodga mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, sabr-toqat, halollik, mehr-oqibat, vatanparvarlik va jamoaviylik kabi fazilatlar uzatiladi. Xalq pedagogikasi vositalari shaxs ongiga bevosita ta'sir etibgina qolmay, uning hissiy kechinmalari, axloqiy qarashlari va hayotiy pozitsiyasini ham shakllantiradi.

Oilaviy tarbiya milliy xarakter shakllanishining dastlabki va eng muhim bosqichidir. Bola ilk bor oilada milliy qadriyatlar, muomala madaniyati, axloqiy me'yorlar, kattalarga hurmat, mehmondo'stlik, halollik va mas'uliyat kabi fazilatlarini o'zlashtiradi. Oila shaxs uchun birinchi tarbiya maktabi bo'lib, undagi munosabatlar, ota-onaning shaxsiy namunasi, oilaviy an'analar va kundalik hayot tarzi milliy xarakter rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak o'qituvchi oilaviy tarbiyaning ushbu imkoniyatlarini anglagan holda, kelajakda o'quvchilar tarbiyasida oila bilan hamkorlikni samarali tashkil eta olishi zarur.

Ijtimoiy muhit ham milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mahalla, ta'lim muassasasi, tengdoshlar jamoasi, ommaviy axborot vositalari, madaniy muassasalar va jamiyatdagi umumiy ma'naviy muhit shaxsning qadriyatlar tizimi va xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Sog'lom ijtimoiy muhit shaxsda ijtimoiy mas'uliyat, jamoaga daxldorlik, fuqarolik pozitsiyasi va milliy g'ururni kuchaytiradi. Aksincha, ma'naviy bo'shliq yoki begona qadriyatlarining nazoratsiz ta'siri milliy xarakter xususiyatlarining sustlashishiga olib kelishi mumkin.

Qadriyatlar tizimi milliy xarakter mazmunini belgilovchi asosiy aksiologik omildir. Vatanga sadoqat, ona tiliga hurmat, milliy madaniyatni qadrlash, tarixiy xotirani asrash, insonparvarlik, adolat, halollik, mehr-oqibat va mas'uliyat kabi qadriyatlar shaxsning dunyoqarashi va xulq-atvorida barqaror sifat sifatida shakllanganda milliy xarakter mustahkamlanadi. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarini faqat targ'ib qilish emas, balki ularni talabning amaliy faoliyati, shaxsiy tajribasi va kasbiy tayyorgarligi bilan bog'lash muhimdir.

Umuman olganda, milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish ta'lim, tarbiya, oila, xalq pedagogikasi, ijtimoiy muhit va qadriyatlar tizimining uzviy integratsiyasini talab etadi. Bu omillar uyg'unlashgandagina bo'lajak o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy barqarorlik, pedagogik mas'uliyat va ijtimoiy faollik kabi sifatlar izchil rivojlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy xarakter tushunchasini pedagogik va aksiologik jihatdan tahlil qilishda, avvalo, xalq pedagogikasi va etnopedagogika nazariyalariga murojaat qilish zarur.

G.N. Volkov ^[2] tomonidan ishlab chiqilgan etnopedagogika konsepsiyasida xalqning yosh avlodni tarbiyalash borasidagi tarixiy tajribasi, urf-odatlar, axloqiy qarashlari va milliy qadriyatlar tarbiyaning muhim manbasi sifatida talqin etiladi. Zamonaviy manbalarda ham etnopedagogika shaxsni milliy madaniyat va xalqning ma'naviy boyligi asosida har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy yo'nalish sifatida izohlanadi. Bu yondashuv milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirishda xalq tajribasi, milliy an'analar va qadriyatlar tizimi asosiy tarbiyaviy omil ekanini ko'rsatadi.

K.D. Ushinskiyning pedagogik qarashlarida tarbiya xalqning milliy ruhi, ona tili, tarixiy xotirasi va madaniy hayoti bilan bevosita bog'liq holda talqin qilinadi ^[3]. Ushinskiy ta'lim-tarbiyada milliylik tamoyilini ilgari surib,

har bir xalqning tarbiyaviy tizimi uning tarixiy, etnik va ma'naviy rivojlanish xususiyatlariga tayanishi zarurligini asoslagan ^[3]. Ushbu qarash milliy xarakter tushunchasining pedagogik mazmunini ochishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, chunki milliy xarakter shaxsga tashqaridan singdiriladigan sun'iy sifat emas, balki xalqning tarixiy-madaniy tajribasi bilan uyg'un holda shakllanadigan ijtimoiy-pedagogik hodisadir.

O'zbek xalq pedagogikasiga oid manbalarda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, xalq og'zaki ijodi va oilaviy tarbiya milliy qiyofani shakllantiruvchi asosiy vositalar sifatida ko'rsatiladi. Jumladan, xalq pedagogikasi bo'yicha tadqiqotlarda milliy qadriyatlar tarkibiga til, din, urf-odatlar, an'analar, bayramlar, muomala shakllari va turmush tarzi kirishi ta'kidlanadi. Bu fikr maqola mavzusi uchun muhim, chunki milliy xarakter aynan shu qadriyatlarning shaxs xulq-atvori, dunyoqarashi va tarbiyaviy pozitsiyasida barqarorlashgan ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

M. Mutalipovning "Xalq pedagogikasi" nomli o'quv adabiyotida xalq pedagogikasining qadriyatlar bilan bog'liq jihatlari keng yoritiladi ^[1]. Unda milliy qadriyatlar xalq turmushi, mehnat faoliyati, mehmondo'stlik, tarixiy obidalar, ma'naviy meros va ma'rifiy an'analar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Mazkur manba milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishda xalq pedagogikasining faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliy tarbiyaviy tajriba, hayot tarzi va ma'naviy meros shaklida namoyon bo'lishini asoslashga xizmat qiladi.

Aksiologik yondashuv nuqtayi nazaridan Sh. Shvartsning qadriyatlar nazariyasi ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Shvarts inson qadriyatlarini shaxs va jamiyat hayotini tartibga soluvchi asosiy motivatsion omillar sifatida izohlaydi hamda qadriyatlar ijtimoiy munosabat, xulq-atvor va guruh barqarorligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi ^[4]. Bu nazariya milliy xarakter tarkibidagi vatanparvarlik, mas'uliyat, halollik, bag'rikenglik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi sifatlarni aksiologik mezonlar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

G. Hofstede madaniy qadriyatlar nazariyasida turli jamiyatlarda fikrlash, xatti-harakat va ijtimoiy munosabatlar tizimi milliy madaniyat bilan bog'liq ekanini asoslaydi ^[5]. Uning "Culture's Consequences" asarida milliy madaniyat vakillari o'rtasidagi tafakkur va ijtimoiy harakat farqlari qiyosiy tarzda o'rganilgan. Mazkur yondashuv milliy xarakter tushunchasini faqat individual psixologik sifatlarni majmui sifatida emas, balki madaniy qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar va tarbiyaviy institutlar ta'sirida shakllanadigan hodisa sifatida tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ham etnopedagogik qadriyatlarining ta'lim jarayonidagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Masalan, M.E. Abdullayevning tadqiqotida etnopedagogik qadriyatlar talabalar milliy g'ururini shakllantirishda muhim vosita sifatida tahlil qilingan. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishda xalq pedagogikasi materiallari, milliy qadriyatlar va tarbiyaviy faoliyat o'zaro bog'liq holda qo'llanishi zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar milliy xarakter tushunchasini uch asosiy yo'nalishda izohlash imkonini beradi:

- *birinchidan*, u xalqning tarixiy-madaniy tajribasi va etnopedagogik merosi bilan bog'liq pedagogik hodisa;
- *ikkinchidan*, u qadriyatlar tizimi orqali shakllanadigan aksiologik kategoriya;
- *uchinchidan*, u ta'lim-tarbiya, oila, ijtimoiy muhit va xalq pedagogikasi vositasida rivojlanadigan shaxsiy-kasbiy sifatlarni majmuidir.

Shu sababli milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida nazariy, metodik va tarbiyaviy jihatdan maxsus tashkil etilishi zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini shuni ko'rsatadiki, ushbu hodisa faqat shaxsning individual xulq-atvori bilan cheklanmaydi, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, axloqiy me'yorlari va tarbiyaviy tajribasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish oliy pedagogik ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim. Chunki o'qituvchi kelajak avlod tarbiyasida nafaqat bilim beruvchi, balki milliy qadriyatlarni yetkazuvchi, axloqiy namuna ko'rsatuvchi va ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantiruvchi subyekt hisoblanadi.

Muhokamalar shuni ko'rsatadiki, milliy xarakter xususiyatlari ta'lim-tarbiya jarayonida tasodifiy shakllanmaydi. Ular maqsadli pedagogik ta'sir, tizimli tarbiyaviy ishlar, xalq pedagogikasi vositalaridan oqilona foydalanish, oilaviy tarbiya bilan uzviy hamkorlik hamda ijtimoiy muhitning sog'lomligi orqali rivojlanadi. Ayniqsa, vatanparvarlik, halollik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi fazilatlar nazariy tushuncha sifatida emas, balki talabaning kundalik faoliyati, kasbiy pozitsiyasi va pedagogik munosabatlarida namoyon bo'lishi zarur.



Shu bilan birga, mavjud ta'lim amaliyotida xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish ko'pincha epizodik xarakterga ega bo'lib qolmoqda. Ba'zi hollarda maqol, rivoyat, urf-odat yoki milliy qadriyatlar dars jarayoniga faqat bezak sifatida kiritiladi, lekin ular orqali talabning shaxsiy pozitsiyasi, axloqiy tanlovi va kasbiy mas'uliyatini rivojlantirishga yetarli e'tibor berilmaydi. Bu esa milliy xarakter tarbiyasini mazmunan chuqurlashtirish, uni kompetensiyaviy, aksiologik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Taklif sifatida, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida xalq pedagogikasi materiallarini o'quv fanlari mazmuniga tizimli integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda maqol va matallar, ertaklar, dostonlar, rivoyatlar, milliy urf-odatlar va tarixiy shaxslar merosi faqat nazariy ma'lumot sifatida emas, balki muammoli vaziyatlar, keyslar, munozaralar, refleksiv topshiriqlar va pedagogik tahlillar orqali o'rganilishi kerak.

Ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini baholash uchun mezon va indikatorlar tizimini ishlab chiqish zarur. Masalan, vatanparvarlik, mas'uliyat, halollik, ijtimoiy faollik, milliy qadriyatlarga hurmat, kommunikativ madaniyat va tarbiyaviy tashabbuskorlik kabi ko'rsatkichlar asosida talabalar rivojlanish dinamikasini aniqlash mumkin.

Uchinchidan, oilaviy tarbiya, mahalla va oliy ta'lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish lozim. Milliy xarakter xususiyatlari faqat auditoriya mashg'ulotlarida emas, balki real ijtimoiy muhitda, jamoaviy tadbirlarda, volontyorlik faoliyatida, milliy bayramlar, madaniy-ma'rifiy uchrashuvlar va tarbiyaviy loyihalarda yanada samarali rivojlanadi.

To'rtinchidan, xalq pedagogikasi vositalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zarur. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, keys-stadi, debat, rolli o'yinlar, raqamli hikoyalar va elektron portfoliolar orqali talabalar milliy qadriyatlarni amaliy faoliyat bilan bog'lab o'zlashtiradilar.

Beshinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda aksiologik yondashuvni kuchaytirish kerak. Bu jaryonda talabalarga milliy qadriyatlarni yodlatish emas, balki ularning mazmunini anglash, shaxsiy hayotiy pozitsiyasi bilan bog'lash, pedagogik faoliyatda qo'llay olish va yosh avlodga yetkazish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir.

Umuman olganda, milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, ma'naviy dunyoqarashi va tarbiyaviy kompetentligini shakllantiruvchi muhim pedagogik jarayondir. Shu sababli xalq pedagogikasi vositalaridan foydalanish tizimli, maqsadli, metodik asoslangan va amaliy natijaga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy xarakter tushunchasi shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, milliy qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy mas'uliyati va tarbiyaviy pozitsiyasini ifodalovchi muhim pedagogik hamda aksiologik hodisadir. U xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an'analari, oilaviy tarbiya madaniyati, xalq og'zaki ijodi va qadriyatlar tizimi asosida shakllanadi.

Milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayoni asosiy metodik maydon bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda vatanparvarlik, halollik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi fazilatlarini shakllantirish ularning kelajakdagi pedagogik faoliyati samaradorligini belgilaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq pedagogikasi milliy xarakter tarbiyasining muhim manbai hisoblanadi. Maqol va matallar, ertaklar, rivoyatlar, dostonlar, urf-odatlar hamda milliy marosimlar orqali yosh avlod ongiga milliy qadriyatlar singdiriladi. Shu bois xalq pedagogikasi vositalaridan foydalanish tasodifiy emas, balki tizimli, maqsadli va metodik asoslangan holda tashkil etilishi zarur.

Aksiologik yondashuv milliy xarakter mazmunini qadriyatlar tizimi orqali anglash imkonini beradi. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat, ijtimoiy faollik, axloqiy mas'uliyat va kasbiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman, milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy yetuk, kasbiy mas'uliyatli va milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tayyorlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. - 160 b.
2. Волков Г.Н. Этнопедагогика. - Чебоксары: Чувашское книжное издательство, 1974.
3. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии. - Москва; Ленинград: Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 1948
4. Schwartz S.H. Universals in the Content and Structure of Values: Theoretical Advances and Empirical Tests in 20 Countries // Advances in Experimental Social Psychology. - 1992. - Vol. 25. - P. 1-65.
5. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. - 2nd ed. - Thousand Oaks: Sage Publications, 2001. - 596 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.